



TARJIMANING MAZMUNI. BADIY TARJIMANING AHAMIYATI

*Toshkent Davlat O'zbek Tili va adabiyoti Universiteti talabasi***Bayjanova Gulxayo**

Annotasiya: *Tarjima dunyoning turli millatlari bilan muloqotni rivojlantiradi. Tarjima sababli insonlar jahon adabiyotining eng sara namunalaridan bahra oladilar. Bu jarayon insoniyatning dunyo qarashini oshiradi, tilning imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjima sababli o'quvchi kitobxonlarni fikrlash doirasi kengayib, yangicha g'oyalar bilan tanishadi. Tarjima jarayoni barcha millat va o'sha millat vakillarining kamol topishiga ijobiy xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *tarjimashunoslik, dinamik ekvivalentlik, lingvistik ocherk, obyekt, transformatsiyalash, mutarjim, zullinisonayn, kontekst, mezon, adekvatlik.*

Tarjima nazariyasi haqidagi dastlabki qarashlar, Qadimgi Rimda vujudga kelgan. Ko'plab tillarni o'zlashtirgan, jumladan, yunon va lotin tillarini mukammal bilgan Aristotel va uning zamondoshlari tarjimada so'z va so'z birliklarining orqasidan yugurish emas, balki ma'noviy jihatlarini har tomonlama o'ylab, fikr-mulohaza qilgan holda tarjimani amalga oshirgan ma'qul, degan fikrlarni bildirishgan. Keyinchalik Angliyalik [Bekon], Italiyalik [Manetti], Fransiyalik [Malerb], Germaniyalik [Gyote], Rossiyalik [Lomonosov] olimlar tarjima nazariyasi va jarayoni haqida o'z qarashlarini aytishgan.

XX asrning 20 yillarida Tarjimashunoslik sohasida doir dastlabki izlanishlar shakllana boshladi. Lekin, bu paytda na chet el olimlari, na o'zbek olimlari tarjima va uning nazariyasi haqida aniq fikr bildirmagan edi. 1950-yillar atrofida esa Tarjimashunoslikni alohida fan, ilmiy soha ekanligini anglatuvchi izlanishlar, ilmiy ishlar ommaga taqdim qilina boshladi. 1952-yilda mashhur tilshunos olim A.A.Reformatiskiy o'zining "Tarjimaning lingvistik masalalari" deb nomlagan maqolasida "Tarjima amaliyoti barcha fanlar uchun xizmat qilsada, tarjima nazariyasi mustaqil fan bola olmaydi. U tilshunoslikning bir bo'limigina bo'lishi mumkin" degan



g'oyani maydonga olib chiqdi. Ammo ko'p o'tmay bu fikrga o'z qarashlarini bildiradigan nomzod topildi. A.Fedorov "Tarjima nazariyasi fan sifatida e'tirof qilinishi zarur. Faqat u qurilishi jihatdan tilshunoslik yo'nalishiga vobasta bo'lmog'ii kerak" degan qarshi fikrni ilgari surdi.

1953-yilga kelib esa, Xalqaro Tarjimonlar Uyushmasining tashkil etilishi tarjimashunoslik sohasining yanada rivojlanishiga, tarjimonlarning imkoniyatlarini oshishiga zamin yaratib berdi. Bu davrga kelib dunyoning turli davlatlaridan tilshunos olimlarning tarjimashunoslik bilan bog'liq ilmiy izlanishlari yaratila boshladi.

1960-yillarning boshlariga kelib esa, fransiyalik tilshunos olim Karining "Tarjima nazariyasi sari" hamda Amerikalik olim Nayda tomonidan yaratilgan "Tarjima nazariyasi xususida" nomi ostida mazmun jihatdan bir biriga juda yaqin ilmiy ishlar e'lon qilindi. Fransiyalik tilshunos olim Kari o'zining tadqiqotida tarjima nazariyasi alohida mustaqil fan deb e'tirof etilishi mazmunidagi "tarjima nazariyasini yaratmoq payti keldi" degan g'oyani ilgari surgan. Amerikalik tilshunos Nayda esa tarjimashunoslik sohasiga ilmiy nazariyalar, izlanishlar zarurligini ta'kidlagan holda, bu sohaga "dinamik ekvivalent" (so'zlarning teng ma'noli muqobillari) tushunchasini kiritdi.

Ayni mana shu davrda, sobiq Ittifoq tilshunoslik va adabiyotshunoslik vakillarining tarjima sohasiga oid tadqiqotlari e'lon qilina boshladi. Jumladan, 1958-yil Fedorov "Tarjima nazariyasiga kirish" nomli kitobini qayta chop ettirdi va unga ilova qilib "lingvistik ocherk" tagsarlavha kiritdi. Hech qancha vaqt o'tmasdan, kitobning mazmuni haqida qizg'in bahs-munozaralar paydo bo'la boshladi. Sobiq Ittifoqning tilshunos olimlari orasida tarjima nazariyasi bilan bog'liq: adabiyotshunoslik hamda tilshunoslikni ilmiy tomonlama talqin qilish muammosi kelib chiqdi.

Tarjimaning amaliyoti, turli xil qarashlari, tanqidiy yondashuvlari, izlanishlari va tadqiqotlarini Tarjima nazariyasi chuqur o'rganadi, shartlari, tartib va talablarini nazorat qiladi.

Tarjima jarayonida aniq bir obyekt bo'lishi darkor. Bu jarayonda umumlashtirishga, tarjima matnida nimalarga ahamiyatli bo'lishga, qaysi turdagi



informatsiyalar kerakligi alohida inobatga olinishi zarur. Tarjima nafaqat tilshunoslikni balki, psixologiyani, san'atni, ijodkorlikni, millatlararo madaniyatni ham o'zida mujassam etgan bo'lishi kerak.

Tilshunoslikning ilmiy yondashuvi bo'yicha tarjima nutqining bir qismi xolos, ya'ni bu jarayon bir tildagi matnni ikkinchi tilga o'girish -transformatsiyalashdir. Aynan mana shu ikki til o'rtasidagi almashuvlar tilshunoslik sohasida tarjima jarayoni deyiladi. Shunday ekan, transformatsiyalashning o'ziga xos bir turi "tarjima" deb nomlasa ham bo'lar ekan. Demakki, nazariyaning asosi- transformatsiyalash bo'lsa, uning predmeti esa mavjud bo'lgan tarjima ishlar hisoblanadi.

Tarjima dunyoning turli millatlari bilan muloqotni rivojlantiradi. Tarjima sababli insonlar jahon adabiyotining eng sara namunalaridan bahra oladilar. Bu jarayon insoniyatning dunyo qarashini oshiradi, tilning imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjima sababli o'quvchi kitobxonlarni fikrlash doirasi kengayib, yangicha g'oyalar bilan tanishadi. Tarjima jarayoni barcha millat va o'sha millat vakillarining kamol topishiga ijobiy xizmat qiladi. Demakki, tarjima jarayoni- millatlararo muloqotni rivojlanishida katta hissa qo'shadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yurtimiz mustaqil bo'lgandan buyon juda ko'p sohalarga etibor qaratildi. Ayniqsa, ta'lim tarbiya sohasiga alohida urg'u berildi. Ma'lumki, hech bir davlat o'z-o'zidan dunyoga tanilib qolmaydi. Mamlakat dunyoga tanilishi uchun kuchli bilim, ta'lim zarur albatta. Demak, mustaqil davlatning kuchi-bilimli avlodda desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasining ilk prezidenti I.A. Karimovning so'zlarini misol qilib olsak bo'ladi. I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ta'lim sohasining rivojlanishi muhim ahamiyatga ega ekanligini quyidagicha ta'riflagan: "Milliy tiklanish yo'li yuqori savodxonlik yuksak madaniyat orqali o'tadi. Shuning uchun ham ma'lumot darajasi va professional tayyorgarlik 21-asr arafasida bizning ijtimoiy rivojlanishimizning o'lchovi bo'lib qolmog'i kerak. Bu islohatlarning belgilangan yo'lidan borishining eng yaxshi loyihasidir. Bu sarflangan mablag'lardan vaqti kelib eng ko'p foyda olinadigan yo'nalishidir. Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan kadrlar tayyorlash milliy dasturi



ana shu fikrning amaliy tadbir'i asosida ko'rish mumkin"[I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch"]

Butun dunyo mamlakatlari o'zaro aloqaga kirishgan bir vaqtda, tarjimonlarga ehtiyoj sezila boshladi. Jumladan, rivojlanib kelayotgan O'zbekistonda ham tarjimonlik sohasi uchun talab kuchaya boshladi. Shu sababli, yurtimizda ham tarjima sohasiga e'tibor kuchaydi. Chunki, badiiy tarjima shunchaki tarjima emas, balki, tarjimonning ijodkorligi demakdir. Ya'ni tarjima jarayonida tarjimon tarjima qilibgina qolmasdan, o'sha asarning asl ruhiyatini, mohiyatini, turli xil detallarini anglab yetgan holda ijodkorlik bilan yondashib tarjima qiladi.

Tarjima-tilning rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Masalan, biz turkiy zabonmiz. Xo'sh, unda biz ingliz tilida yozilgan mashhur asar hisoblanmish "Otello", "Rameo va Julietta", rus tilida yozilgan "Yevgey Onegin" she'riy romani yoki nemis tilida mahorat ila yozilgan "Faust" asarini va ularning mashhur yozuvchilarni qayerdan bilamiz? Albattada, tarjimon va uning yordami orqali. Bu asarlarni tarjima qilishda, tarjimon shunchaki tarjima qilmasdan, o'sha asar ichida yashagan, asar ruhiyatini his qilgan.

Buyuk nemis yozuvchisi Gyote o'z asari "Faust"ni Jeran tomonidan fransuzchaga qilingan tarjima talqinini o'qib, "nemis tilida men "Faust"ni qayta o'qigim kelmaydi, lekin mana bu fransuzcha tarjima meni hamon hayajonga soladi va u sof, yangi o'tkir tuyuladi" degan. Bundan kelib chiqqan holda, tarjima-inson ma'naviyatining va ona tilimiz rivojining asosiy ustunlardan biridir. Tarjima ona tilimizni nafaqat boyitadi, balki uni serjilo qiladi, imkoniyatlarini oshiradi. Insonlar dunyoning turli burchaklarida yashab turib ham, bir-birlari bilan yaratilayotgan manaviy boyliklar orqali qalban do'stlashib, yaqinlashib bormoqdalar.

"Kundalik aloqa vositasi bo'lgan tilga nisbatan badiiy adabiyot tili-bu so'z ustalari tomonidan qayta ishlangan tildir" degan edi A.V.Fedorov. Darvoqe, bu so'zlar bugungi kunga kelib, o'zining naqadar to'g'ri ekanligini isbotlamoqda. Tarjimoni bevosita unib borayotgan niholga qiyoslasak bo'ladi. Nihol bir joydan boshqa joyga ko'chib o'tkazilsa, meva bersa gullab-yashnasa ko'zni quvontiradi. Bu albatta bog'bonning mahoratiga bog'liqdir. Chet el adabiyoti namunalari ham boshqa tilga



tarjima qilinganda, o'quvchini boshqatdan hayajonga solishi tarjimonga bog'liq. Demakki, tarjimani niholga, tarjimonni bog'bonga qiyoslash xato bo'lmaydi.

Belinskiy badiiy tarjima haqida o'z qarashlarini quyidagicha talqin qilgan: "Badiiy asarni tarjima qilishining bitta qoidasi bor. Tarjima qilinayotgan asarning ruhini berishdir. Buning uchun, agar, basharti, muallif rus bo'lganida u ham asarni rus tilida xuddi shunday yozilgan bo'lar edi, deyiladigan qilib tarjima qilish kerak".

Aslida, mutarjim zullinisonayn bo'lishi kerak. Ya'ni, har ikkala tilning ma'naviyati, leksikasi, frazeologiyasidan xabardor bo'lmog'i kerak. Shundagina asarning tarjimasini o'qigan kitobxon ham hayratda qoladi, asarning mutolaasini tugatgach esa, o'sha asar ruhi bilan yashaydi, qayta qo'liga olganda avvalgidan ham ko'proq hayajonga tushadi, qancha o'qisa ham yana va yana o'qiyveradi. Tarjima jarayoni ana shunday bo'ladi.

Asar, hikoya tarjimasida tarjimondan ijodkorlik, badiiylik, tassavur kengligi ham talab qilinadi. Chunki asar, hikoya, ertak yoki roman tarjimasida tarjimon o'sha asarni boshqatdan yaratishi, badiiy bo'yoqdorligini oshirib berishi ham kerak. Masalan, "die" so'zi asarda keltirilgan. Tarjimon bu so'zni kontekstdan kelib chiqib tarjima qiladi. Agar asar salbiy ma'noda yozilgan bo'lsa, "o'lmoq", ijobiy ma'noda bo'lsa, "dunyodan o'tmoq", "ko'z yumdi" ma'nolarini ishlatish mumkin.

Tarjima turlari, janrlari, turli xil sohalari, tarjima jarayoni bir-biri bilan bevosita bog'liqdir. Va bu bog'liqlik tarjimon kadrlar tayyorlash muammosini yuzaga keltiradi. Bu muammoni bartaraf qilmas ekanmiz, tarjimalar sifati ham yomonlashadi. Tarjimashunos olimlardan biri Isaak Zinger[1904-1991]: "Tarjimon sinchkov o'quvchi, ajoyib uslubchi, so'z ustasi, psixolog, har tomonlama bilimdon bo'lmog'i kerak",- deya ta'kidlagan.

Tarjima jarayoni ham mashaqqatli bir yo'l demakdir. Chunki, asar tarjimasida umumiylik yoki qisqacha tushunarli ekanligi asosiy mezon bo'la olmaydi. Tarjimondan asar mazmuni emas, balki yozuvchining hissiyotlarini, ichki kechinmalarini, badiiy xususiyatlarini yuzaga chiqarish talab qilinadi.

Ko'plab tarjima turlari orasida badiiy tarjima alohida ajralib turadi. Tarjimaning bu turida shunchaki yetkazib berish emas, balki asarni boshqatdan



yaratish ham kerak. Shu sababli ham, tarjima qilingan asar- badiiy ijod namunasi, tarjimon esa ijodkor hisoblanadi. Tarjimondan esa, voqealarni, asardagi voqelikni badiiy tafakkur mahsuli sifatida mahorat bilan tarjima qilish talab qilinadi.

Insoniyat boshqa mavjudotlardan ongli ekanligi bilan ajralib turadi. Ongli insoniyat esa mutasil muloqotda bo'lishga intiladi. Tashqi dunyo bilan aloqada bo'lishga harakat qiladi. Axir, insoniyatning asosiy ehtiyoj va harakat shakli bu muloqot va aloqadir.

Demakki, insoniyat uchun oddiy va kundalik faoliyat shakli- muloqot bo'lsak, murakkab faoliyat shakli esa tarjimadir. Chunki, tarjima jarayoni ma'lum bir tilga tegishli bolgan matn yoki asarni, shakl va ma'no- mazmun jihatdan saqlab qolgan holda, ikkinchi bir tilda boshqatdan ijodiy-badiiy bo'yoqdorlik bilan gavdalantirish jarayoni hisoblanadi. Demak, ma'lum bir til doirasida vujudga kelgan matn, boshqa bir til ya'ni tarjima tili qoidalari, uslublari asnosida yaratilgan xuddi shunga o'xshash matn bilan almashtiriladi. Ana shu yo'sinda, asl va tarjima tillari, matnlari. umuman olganda barcha sohalariga doir adekvatlik yuzaga keladi. Ushbu qarash, millatlararo bo'ladigan jarayonga bevosita bog'liq bo'lib, insoniyat faoliyatining anchagina qismini egallaydi. Shuning uchun ham " tarjima" so'zi tilga olinganda ko'pchilikning tasavvurida, bir tilda yozilgan asar yoki materialni ikkinchi tilga ag'darish jarayoni paydo bo'ladi.

Tarjimashunoslik insoniyat faoliyatida eng qadimgi davrlardan kuzatilgan. Bu soha sababli inson taraqqiyotini bosqichma-bosqich, barcha ma'lumotlar bilan birgalikda aniq va ravshan tasavvur qilamiz. Shubhasiz, Tarjimashunoslik sohasi millatlar va tillar orasida do'stlik, qavm- qarindoshlik rishtalarini bog'lovchi vosita, madaniy-marifiy, ilmiy-manaviy, siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi asosiy omildir.

Nemis tilshunos olimi V.Fon.Gumboldtning, "tilda xalq ruhi aks etadi" fikriga mazmunan yaqin o'zbek tilshunos olimi Mahmudov tilda xalqning urf-odati, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi, xalqning bor - budi, bo'y- basti aks etadi. Muayyan xalqning tilini bilish uning butun borligini anglash demakdir. Muayyan xalq tiining mazmun- u mohiyatini idrok etish shu xalqning tarixi-yu kelajagini idrok etish



demakdir. Til xalqning bebaho va muqaaddas boyligidir, xalqning har bir asl farzandi o'z tilidan sobit va o'z tiliga sodiq bo'lmog'i azal-abad ham qarz, ham farz ekanligini o'z asarlarida keltirib o'tgan. "Inson tabiati, fe'l-atvori go'dakligidan shakllanar ekan, milliy dunyoqarash ham bola vujudiga ona suti bilan kiradi. Mana shunga alohida e'tibor berishingizni iltimos qilmiqchiman: tabiiyki, Ona allasi faqat chaqaloqning orom olishi uchungina aytilmaydi, balki uning vositasida bolaning ko'ngil dunyosiga milliy ruh kiradi. Ona tilidagi mehr-muhabbat, nasliy tuyg'ular va orzular go'dakning jism u jonida ildiz qoldiradi,"- deya ta'kidlagan edi, -O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida. [I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"]. Bu fikrlar orqali prezidentimizning tilga alohida e'tibor berganlari namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin ki, tarjima bu- millatlararo, xalqaro ko'prikdir. Millatlarni, xalqlarni bir biri bilan tanishtiradigan, bir millatning bor hayotini bo'y- basti bilan ifoda etib, dunyoga tanitadigan asosiy omil ham tarjima ekan.

Xullas, tarjimashunoslik insonlar o'zaro gaplashishiga uringan vaqtdan beri yashab kelmoqda, boshqacha aytganda, u yanayam rivojlanishdan to'xtamayapti. Bundan kelib chiqadi-ki, insonlar barcha davrlarda tarjimaga muhtoj bo'lishgan.

Tarjimon bir asarni o'z ona tiliga o'girayotganda asarning muallifi bilan tengma-teng bellasha olish darajasida bo'lmog'i lozim. Axir, "tilni tilga ulaganda emas, dilni dilga payvand etganda tarjima payda bo'ladi" [G'aybulla Suyunov]

Darhaqiqat, bir millat yozuvchisi nima his qilgani, o'sha asar yozish davomida chekkan zahmatini dunyoning boshqa bir burchagidagi odamga yetkazish uchun ham mahorat, ruhiyatdagi tutqinlikka bo'lgan isyonkorlik hissiyoti kerak. So'zni qo'llash jarayonida tarjimonda chegara bo'lmasligi lozim. Chunki, so'zlarning ma'nolari, sinonimlari juda ko'p. Ular orasidan munosibini tanlab olish uchun esa "so'zlar chegarasi" ni unitish kerak.

Demakki, tarjimon ham yozuvchi his qilgan hissiyotni, ichki kechinmalarini xuddi o'zidek his qilishi zarur. Aks holda, tarjimoni o'qigan mushtariy so'zlar ketma ketligini o'qiydi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fatxutdinova Iroda Atxamovna. TDSHU; Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika kafedrası o'qituvchisi; "Tarjimada ekvivalentlikning muloqot maqsadini ifodalash vositalari" maqolasi-2021
2. I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov; "Tarjima nazariyasi" kitobi. "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti. Toshkent -2012
3. I.A.Karimov; "Yuksak manaviyat-yengilmas kuch"
- 4.M.Sh.Omonova; "Tarjima nazariyasi va amaliyoti". "Zebo Prints" nashriyoti. Toshkent -2023
- 5.Nigora Isroilova; "Badiiy yozma tarjima va uning xususiyatlari" maqola: 2024-yil
- 6.Qudrat Musayev; "Tarjima nazariyasi asoslari". "Fan" nashriyoti
7. "Tarjima tillararo va madaniyatlararo kommunikatsiyaning turi sifatida". Samarqand - 2021
8. Ziyoda Aliyeva; "Badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari" maqola: "Media. Til va madaniyat. Tarjima" talabalar ilmiy-amaliy konferensiya. 2023-yil